

**"TEKNOLOGIK TA'LIMDA INNOVATSION METODLARNI
QO'LLASHNING SAMARADORLIGI"**

Mamajonova Guluzro Abdurashitovna

Andijon davlat pedagogika instituti

fizika va texnologik talim V.b dotsent

Annotatsiya: *Ushbu maqolada texnologik ta'limda innovatsion metodlarni joriy etishning zarurati, ularning o'quv jarayoniga ta'siri hamda samaradorligi atroflicha tahlil qilingan. An'anaviy ta'lim shakllaridan farqli ravishda, interfaol va innovatsion metodlar o'quvchilarni dars jarayonida faol ishtirok etishga, mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni yechishga o'rgatadi. Xususan, loyiha asosida o'qitish, "aqliy hujum", "fikrlar kartasi", rolli o'yinlar, "besh barmoq" va "klaster" metodlarining qo'llanilishi orqali o'quvchilarning amaliy ko'nikmalari, ijodiy yondashuvi va ijtimoiy faolligi rivojlanishi ta'kidlangan. Shuningdek, maqolada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) yordamida darslarni interaktiv tashkil etish, multimediya vositalari orqali mavzuni chuqurroq o'zlashtirish imkoniyatlari ham yoritilgan. Ilmiy-nazariy tahlillar va amaliy kuzatuvlarga tayangan holda, innovatsion metodlarning texnologik ta'lim sifatini oshirishdagi roli asoslab berilgan va tavsiyalar ilgari surilgan.*

Kalit so'zlar: *texnologik ta'lim, innovatsion metodlar, interfaol yondashuv, loyiha asosida o'qitish, ijodiy fikrlash, AKT, samaradorlik.*

Kirish: XXI asrda jamiyatning barcha sohalarida yuz berayotgan o'zgarishlar, ayniqsa, ta'lim tizimiga yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, o'quvchilarning faolligini oshirish, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, texnologik ta'lim ham zamon bilan hamnafas bo'lishi, an'anaviy yondashuvlardan zamonaviy va interfaol metodlarga



o'tishi zarur. Innovatsion texnologiyalar – bu ta'lim jarayonini yanada sifatli tashkil etish, o'quvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda samarali ta'lim berish imkonini beruvchi zamonaviy vosita va usullardir.

Bugungi kunda texnologiya fanini o'qitishda nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini shakllantirish, kreativ tafakkurini rivojlantirish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, o'qituvchidan yangilikka ochiqlikni, doimiy izlanishni va pedagogik mahoratini doimiy takomillashtirishni talab etadi. Interfaol o'qitish metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, loyihaviy faoliyat, rolli o'yinlar, o'yinli texnologiyalar kabi yondashuvlar texnologiya darslarini samarali tashkil etish imkonini beradi. Ayniqsa, bunday usullar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiribgina qolmay, balki ularning mustaqil ishlash, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, ijtimoiy faollik va jamoada ishlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, texnologik ta'limda innovatsion yondashuvlarni muvaffaqiyatli joriy etish uchun o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi, ularning zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish darajasi ham katta ahamiyatga ega. O'quvchilarning ijtimoiy, psixologik va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda dars jarayonini tashkil qilish, ularning har biriga yondashuvni shaxsga yo'naltirilgan tamoyil asosida qurish bugungi ta'limda dolzarb vazifalardan biridir. Shu asosda, mazkur ishda texnologik ta'lim darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari, ularning samaradorligi va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi.

O'zbekiston Respublikasida ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, maktab ta'limni modernizasiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish va Maktabgacha va maktab ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining



“O‘zbekiston Respublikasi maktab ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risi” dagi 08.10.2019 yil PF-5847-sonli farmonida keltirilib o‘tilgan. Ta’lim sohasidagi innovatsion texnologiyalar doimiy ravishda rivojlanib, ularning turlari kengayib bormoqda.

Innovatsion faoliyat sohasiga, ta’lim berishda axborot texnologiyalariga aloqador dolzarb muammolarning yechimini izlashga o‘z vaqtida F.I. Peregudov munosib hissa qo‘shdi. Bugungi kunda pedagogika sohasida yangi ilmiy yo‘nalish - pedagogik innovatsiya va ta’lim jarayonini yangilash g‘oyalarining paydo bo‘lishi natijasida o‘qituvchining pedagogik faoliyatida ham yangi yo‘nalish «O‘qituvchining innovatsion faoliyati» tushunchasi paydo bo‘ldi. «Innovatsion faoliyat» tushunchasini tahlil qilar ekanmiz: G.A. Mkritichyanning bu haqdagi fikri diqqatga sazovar: - «Pedagogik tajriba sinov faoliyatining 3 ta asosiy shaklini ajratish mumkin: xususiy tajriba, tajribasinov ishi, o‘qituvchining innovatsion faoliyati. Pedagogik faoliyatda innovatsiyalar qancha ko‘p bo‘lsa, o‘qituvchi xususiy eksperimentni shuncha yaxshi tushunadi». Bizning mamlakatimizda pedagogik innovatsiyani yaratilishi va rivojlanishi keng jamoatchi pedagoglar harakati maktablarining tez rivojlanishi, modernizatsiya qilinishi, standartlarni takomillashtirilishi va dasturlarni yangilanishiga bo‘lgan katta ehtiyoj tug‘ildi.

Yangiliklarni izlash, yaratish, qo‘llash ishlari jadallashib bordi. Shu sababli yangi bilimlarga bo‘lgan talab, “yangilik”, “innovatsiya” va “innovatsion jarayonlar” paydo bo‘ldi va u tushunchalarni izohlash, anglash zaruriyatini keltirib chiqardi. Innovatsion jarayonlarning mikrostrukturasini o‘rganib olimlar yangilik kiritishning “hayotiy qismi (davri)” kontsepsiyasini ishlab chiqdilar, u yangilik kiritish vaqt davomida o‘tib boradigan jarayon degan fikrni ilgari surdilar. Bu jarayonda yangilikning yaratilishi va ijro etilishini ta’minlovchi faoliyatlarni turlarga ajratuvchi bosqichlarga bo‘linadi. Shu davrga kelib ilmiy adabiyotlarda innovatsion jarayonlarni quyidagi bosqichlarga ajratilmoqda: Yangi g‘oya paydo bo‘lishi yoki yangilik kontsepsiyasi yuzaga kelishi bosqichi. Uni shartli ravishda fundamental va amaliy ilmiy tekshirishlar (yoki birdan paydo bo‘ladigan) natijalardan kelib chiqadigan yangilik bosqichi deb ataydilar. Kashf etish vaqti, ya’ni amalga oshgan ob’ekt, moddiy



yoki ma'naviy mahsulot namuna ko'rinishdagi yangilik yaratish. Yaratilgan yangilikka amaliy ko'rinish topilib, uni qo'shimcha ishlab mukammallashtirish amalga oshiriladi. Bu bosqich yangilik kiritishdan mustahkam samaradorlikka erishish bilan yakunlanadi. Shundan so'ng yangilikning mustaqil mavjudligi boshlanib, yangilik kiritish jarayoni keyingi bosqichga o'tadi. Bu bosqich faqatgina yangilikni qabul qilish shartida amalga oshadi. Yangilikdan keyingi bosqichlar ko'rinadi. Yangilikning biror sohada tarqalishi, uning boshqa sohalarga diffuziyalanib (qo'shilib) keng tatbiq etilishi bilan yakunlanadi.

Yangilikning biror sohada xukmron bo'lishi, bunda xususan yangilik o'z yangiligini yo'qotib, yangilik sifatida mavjud bo'lmay qoladi. Bu bosqich yangi samarali yangilik paydo yoki undan ko'ra yanada samaralirog'i bilan almashtirilishi bilan yakunlanadi. Yangilik doirasi qisqarib, uni yanada mahsuldorrog'i bilan almashtirilishi bilan yakunlanadi. Yuqorida keltirilgan innovatsion jarayonning bir – birini vaqtlar davomida yangi bosqichga ketma – ket almashtirib, muntazam tizim, uning rivojlanib borishining soddalashtirilgan ko'rinishlarida ifodalaydi. Biroq aniq innovatsion jarayon bu bosqichlarni o'z ichiga olib, ularning ketma – ket va bog'liqliklariga har doim rioya qilinishi shart emas. Yangilikni kiritishni yangilik yaratish va tarqatish kompleks va maqsadga muvofiq jarayon sifatida qarab, uning maqsadi inson talab va ehtiyojlarini yangi vositalar bilan qondirilishi bo'lib, uning samaradorligi muntazam va hayotiy yangilikni ta'minlovchi uslub va tizimlarni ma'lum sifatli o'zgarishiga olib keladi. Innovatsion jarayon boshqa sifatli holatga eskirib qolgan hamda vaziyat va ahamiyatlarini qayta ko'rib chiqish bilan bog'liq bo'ladi. Bir darajali qator yangiliklar yig'indisi (umumiyligi) innovatsion yaxlitlikni tashkil etadi. Innovatsion faoliyat davrida yangiliklar, innovatsiyalar, tom ma'noda ta'lim jarayoniga kirib keladi. Shu sababli ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni pedagogik jarayonlarga kiritish to'rt bosqichda amalga oshiriladi: Muammoni tahlil asosida aniqlash; Mo'ljallanayotgan ta'lim tizimini loyihalash; O'zgarish va yangiliklarni rejalashtirish; O'zgarishlarni amalga oshirish. Yangilik kiritish ichki mantiq va yo'nalishlarga ega bo'lib, u yangilik g'oyasi (fikrini) tug'ilishdan to uni foydalana boshlanishigacha bo'lgan xarakterlarni rivojlantirish ham innovatsion ishtirokchilari



o'rtasidagi munosabat mantig'ini belgilaydi. Shu tariqa yangilik kiritish dinamik tizim bo'lib, ichki mantiq kabi vaqt davomida qonuniy rivojlanishi, uning atrof – muhit bilan o'zaro bog'liqligini ifodalaydi. Innovatsion jarayoni tuzilishi yangilikning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tib borishi bilan o'zgarib boradi.

Shu bilan yangilikning dinimaki xususiyatlaridan uning natija – yakuni va samarasi o'zaro bog'liq bo'ladi. Yangilikning yakunlanganligi va uning imkoniyatlari amalga oshirilganlik darajasi innovatsion jarayonning hamma bosqichlari qanchalik muvafaqqiyatli o'tib borishiga bog'liq bo'ladi. Oddiy ishlab chiqarishdan kengaytirilganiga o'tish keskin vaziyat hisoblanadi, bu o'tish amaliyotida ko'p hollarda amalga oshirilmaydi, bu hol qaysidir yangilikning yakunlanmasligiga sabab bo'lib, ko'pgina innovatsion muammolar mavjudligini yuzaga keltiradi.

Xulosa: Texnologik ta'lim darslarida innovatsion texnologiyalarni qo'llash ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Bunday texnologiyalar o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, muammoli vaziyatlarni hal etish, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va darsga bo'lgan qiziqishni oshirishda muhim o'rin tutadi. Interfaol usullar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, loyiha asosidagi yondashuvlar, rolli o'yinlar kabi metodlar o'quv jarayonini interaktiv va mazmunli tashkil qilish imkonini beradi.

Bundan tashqari, innovatsion yondashuvlarning samarali qo'llanilishi o'qituvchining kasbiy mahorati, doimiy o'z ustida ishlashi va zamonaviy texnologiyalarga moslasha olishi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu boisdan, pedagogik kadrlar malakasini muntazam oshirib borish, ularni yangi metod va texnologiyalarni qo'llashga tayyorlash ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir.

Umuman olganda, texnologik ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etish nafaqat ta'lim samaradorligini ta'minlaydi, balki o'quvchilarni kelajakda raqobatbardosh, ijodkor va tashabbuskor mutaxassislar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan avlodni tarbiyalashning asosiy kafolati hisoblanadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun. O‘RQ-637-son. 2020-yil 23-sentabr.<https://lex.uz/>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda
3. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni, Qonun xujjatlari to‘plami milliy bazasi.
4. Ishmuhamedov, R., Abduqodirov, A., & Pardayev, A. (2008). *Ta’limda innovatsion texnologiyalar: Amaliy tavsiyalar*. Toshkent: Iste’dod.
5. Qodirov, N. (2017). *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi.
6. Azizxo‘jaeva, N. N. (2003). *Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat*. Toshkent: Fan.
7. Soliyev, A., & Rasulov, B. (2018). *Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim tizimida qo‘llash*. Toshkent: TDPU.

Elektron ta’lim resurslari

1. [www. Ziyonet. uz](http://www.Ziyonet.uz)
2. www. edu. uz
3. tdpu-INTERNET. Ped